

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиақбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ
CBT.....7-11

Mamadaliyeva Gulhayo

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI 12-16

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV..... 17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI
QIYOSIY FARQLAR..... 20-23

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI 24-25

Xasanova Nargiza

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA 26-29

Rustamova Nigora

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI 30-32

Xalilov Baxodir

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"
TASHKILOTI FAOLİYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) 33-37

Норов Шухрат

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) 38-41

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) 42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODIKASI 44-47

Abduraimova Nigora

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI 48-51

Sidiqov Jasurbek

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR..... 52-56

Nematova Dilnoza

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 57-63

Axmedova O'g'ilshod

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI 64-66

<i>Abduraimova Nigora</i> TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i> MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i> TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i> INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
FALSAFA FANLARI	
<i>Gafurova Munajat</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI	93-98
FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i> IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i> CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida).....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i> "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i> "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i> TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIKMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbonova Aziza</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

<i>Qosimova Malika</i> LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI	137-140
<i>Ayimbetova Damekhan</i> ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI	141-145
<i>Yo'ldasheva Mahliyo</i> "MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	146-149
<i>YURIDIK FANLARI</i>	
<i>G'ofurov Ramzbek</i> DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI	150-154
<i>Turdibaeva Mukhaddas</i> JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES	155-160
<i>Gafurova Shoir</i> ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI	161-165
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR	166-169
<i>Babajanov Farrux</i> IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH	170-175
<i>PEDAGOGIKA FANLARI</i>	
<i>Нуриллаева Угулхон</i> ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ	176-181
<i>Tursinova Zoxida</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	182-191
<i>Babayeva Shahnoza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI	192-194
<i>Rasulova Barnoxon</i> KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI	195-199
<i>Zokirjonov Akramjon</i> O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI	200-202
<i>Baratova Yulduz</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI	203-206

Sattoriy Shohruh

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI 207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN..... 211-213

Мамадалиев Хасанхон

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ..... 214-218

Maxmudbekov Boburmirzo

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH..... 219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Усманова Лилия

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ 222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa'diyev Bahodir

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI..... 226-231

“MARTIN IDEN” VA “OQ SO'YLOQ” ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Yo'ldasheva Mahliyo Faxriddin qizi

Tayanch doktorant, Namangan davlat universiteti

E-mail: makhliyoyuldasheva05@gmail.com

ORCID:0009-0006-0187-3032

Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjimada pragmatik omillarni hisobga olishning dolzarbligi yoritilgan. Tarjimon til va madaniyat o'rtasidagi uyg'unlikni saqlab, matnning pragmatik salohiyatini to'g'ri yetkazishi kerakligi ta'kidlanadi. Xususan, konnotativ ma'nolar, kontekst, stilistik va emotsional rang-barangliklarni saqlab qolish orqali tarjima matnining semantik, estetik va kommunikativ qiymati oshirilishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. Jek Londonning “Martin Iden” asaridan misollar orqali asl matn va tarjima orasidagi lingvopragmatik tafovutlar tahlil qilinadi. Maqola tarjimashunoslikda nazariy va amaliy yondashuvlarni boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tarjimada pragmatika, lingvopragmatik tahlil, badiiy-estetik ekvivalentlik, konnotativ ma'no, kontekstual moslik, “Martin Iden” asarining tarjimasi, tarjimonlik strategiyalari, madaniy moslashuv, asl matn va tarjima munosabati, tarjimadagi kommunikativ ta'sir.

LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF THE TRANSLATIONS OF “MARTIN EDEN” AND “WHITE FANG”

Yuldasheva Makhliyo Fakhriiddin qizi

Doctoral student, Namangan State University

Annotation. This article explores the significance of considering pragmatic factors in the translation process. It emphasizes that a translator must preserve the balance between language and culture while accurately conveying the source text's pragmatic potential. The importance of maintaining connotative meanings, context, stylistic and emotional nuances is highlighted as a means to enhance the semantic, aesthetic, and communicative value of the translated text. Using examples from Jack London's Martin Eden, the article analyzes the linguistic and pragmatic discrepancies between the original and translated versions. It contributes both theoretically and practically to the field of translation studies.

Key words: Pragmatics in translation, linguo-pragmatic analysis, aesthetic and stylistic equivalence, connotative meaning, contextual adequacy, translation of Martin Eden, translator's strategies, cultural adaptation, source and target text relations, communicative effect in translation.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-34>

Ko'pgina hollarda tarjimonlar tarjima jarayonida til va madaniyatga alohida e'tibor qaratib, matnning pragmatik jihatlarini yetarlicha hisobga olmaydilar. Bu esa asl va tarjima matni o'rtasida mantiqiy, kontekstual va kommunikativ uyg'unlikning buzilishiga sabab bo'ladi. Natijada tarjimada semantik va stilistik darajadagi muammolar yuzaga keladi. Bunday holat, ayniqsa, lingvistik ekvivalentlikni pragmatik jihatdan e'tiborga olmaslik natijasida vujudga keladi. Matnni faqat so'zma-so'z tarjima qilish orqali uning mazmuni va mohiyati yetarlicha ifodalanmaydi, shu bois maqsadli auditoriyaning anglash darajasi va madaniy idroki inobatga olinmay qoladi. Shu sababli, tarjimaning izchilligi va aniqligini ta'minlash uchun manba va tarjima tillarining lingvistik vositalari, shuningdek, badiiy matnning obrazlilik, ta'sirchanlik va estetik qimmati saqlanishi lozim. Uslubiy va pragmatik jihatlarni chuqur tahlil qilish orqali matnlar o'rtasidagi semantik va kommunikativ moslik darajasi

to'g'risida aniq xulosa chiqarish mumkin.[1, 184-p] Bu yondashuv tarjimashunoslikdagi nazariy qarashlarni boyitadi va amaliy yechimlarning sifatini oshiradi. Tarjimada asosiy mezonlardan biri – manba matn mazmunini aniq va to'g'ri yetkazishdir.

Shuningdek, tarjimada manba tilidagi so'z va iboralarning konnotativ (ya'ni qo'shimcha, emotsional va madaniy) ma'nolarini e'tiborga olish – to'liq va kontekstga mos tarjimaga erishishning muhim shartlaridan biridir. Bunday konnotatsiyalarni to'g'ri talqin qilish, tarjimaning pragmatik jihatlarini, xususan, ma'noning madaniy mosligi, auditoriya uchun tushunarligi va nutqiy muvofiqligini aniqlashni talab qiladi. Tarjimon nafaqat lug'aviy ma'noni, balki so'zning stilistik, emotsional va madaniy rang-barangligini ham to'g'ri yetkazishi zarur. Demak, tarjima sifati – asliyatdagi konnotativ ma'no, pragmatik nuanslar va mazmuniy moslikni to'g'ri aks ettirish orqali ta'minlanadi. Bu esa tarjimaning badiiy-estetik darajasini saqlab qolish bilan birga tarjimashunoslik nazariyasini ham amaliy jihatdan boyitadi.

Bundan tashqari, tarjima jarayonida so'zlarning faqat asosiy (denotativ) ma'nolari emas, balki ularning kontekstual, madaniy va emotsional ranglari ham inobatga olinishi kerak. Bu omillar semantik to'liqlikni va tarjimaning ifodaviyligini ta'minlaydi. Konnotatsion qatlamlarni to'g'ri anglash va ifodalash esa, o'z navbatida, tarjimaning pragmatik jihatlariga chuqur yondashishni talab qiladi. Bu yondashuv matnning maqsadli madaniy muhitda qanday qabul qilinishini aniqlashga xizmat qiladi.

Sh. Safarovning ta'kidicha, pragmatika keng qamrovli soha bo'lib, u faqat tilshunoslik doirasidagi semantika va sintaksisni emas, balki umumiy kontekstda so'zlovchi va tinglovchining matnni qanday anglashini ham o'rganadi. Shu bois, badiiy tarjimaning pragmatik tahlilida leksik birliklarning semantik va sintaktik xususiyatlarini alohida ko'rib chiqish, ularning o'zaro ta'sirini aniqlash va kontekstual uyg'unligini baholash zarur bo'ladi.[2;48-b.]

Umuman olganda, tarjimada pragmatik omillarni hisobga olishning asosiy vazifasi – manba va maqsadli tillar o'rtasidagi madaniy tafovutlarni kamaytirish, auditoriyaning "bilimlar fononi"ni (ya'ni ekstralingvistik ma'lumotlar zaxirasini) hisobga olib, matnni tushunarli qilishdan iboratdir. Asl til uchun aniq va oddiy bo'lgan ifodalar, tarjima tilida tushunarsiz yoki noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Shuning uchun, tarjimon lingvistik tenglik bilan birga, ma'nodagi pragmatik uyg'unlikni ham ta'minlashi zarur. Aks holda, lingvistik jihatdan to'g'ri bo'lgan tarjima ham o'zining kommunikativ vazifasini bajarmasligi mumkin.

Jek Londonning "Martin Iden" va "Oq So'yloq" asarlari garchi g'oyaviy jihatdan bir-biridan farqlansa-da, ularning tarjimasida lingvopragmatik tafovutlar alohida o'rin tutadi. Har ikkala asarda ham muallif o'z davrining ijtimoiy va madaniy muhitini aks ettirgan bo'lib, bu esa tarjima jarayonida kontekst, madaniy jihatlar va illokutiv ma'no qatlamlarini to'g'ri yetkazishni talab qiladi. Masalan, "Martin Iden" asaridagi quyidagi satrlarni tahlil qilamiz:

"Surely there were no live, warm editors at the other end. It was all wheels and cogs and oil-cups—a clever mechanism operated by automatons." [3] (Uzbekchasiga: "Shubhasiz, boshqa tomonda tirik muharrirlar yo'q edi. Bu barcha g'ildiraklar, tishli va moyli stakanlar — avtomatlar tomonidan boshqariladigan aqlli mexanizm edi.") Ushbu jumalarda muallif nashriyot tizimining insoniylikdan yiroqligini, sovuqligini va mexanizatsiyalashgan holatini tanqid ostiga oladi. "Live, warm editors" (tirik, iliq muharrirlar) iborasi orqali real, jonli

odamlar emas, balki hissiz, avtomatlashtirilgan tizim faoliyat ko'rsatayotgani ko'rsatib beriladi. "Wheels and cogs and oil-cups" (g'ildirak, tishli va moy idishlari) esa bu tizimning mexanik, ruxsiz va insoniyatga befarq faoliyat yuritishini ifodalaydi. "Automatons" (avtomatlar) so'zi bilan muallif muharrirlarni emas, balki butun tizimni his-tuyg'ulardan mahrum, dasturiy mexanizmlarga o'xshatib tasvirlaydi.

Bu satrlar orqali yozuvchi adabiyot sohasida insoniylik, ijodkorlik kabi qadriyatlar emas, balki sovuq, mexanik yondashuv ustuvor bo'lib qolayotganini fosh etadi. "Live, warm" va "wheels and cogs" obrazlari orqali muallif inson va mashina qarama-qarshiligini yuzaga chiqaradi. "Oil-cups" esa, tizimning "moylab ishlayotgan", ammo ruhsizligiga ishora qiladi. Bu yerda ishlatilgan badiiy vositalar, xususan, metafora orqali tanqidiy ohang kuchaytirilgan, "clever mechanism" esa kinoya va ironiyaga boy ibora bo'lib, "aqlli" deb baholangan tizim aslida ijodiy fikrni bo'g'uvchi kuch sifatida talqin etiladi. G'arb adabiyotida texnologiya va byurokratiyaga nisbatan bildiradigan salbiy munosabat aynan shu shaklda ifodalanadi. Bu fikrlar kapitalistik tizimning tanqidiga xizmat qiladi.

Ushbu satrning rus tilidagi tarjimasini: "Очевидно, и в самом деле никаких живых людей по указанным адресам не было. Были просто хорошо сложенные, смазанные маслом автоматы." [4] Tarjimada "live, warm editors" iborasi "никаких живых людей" shaklida, ya'ni ancha mos va semantik jihatdan to'g'ri tarzda ifodalangan. "Хорошо сложенные, смазанные маслом" birikmasi esa mexanik tizimning barqaror, lekin insoniyatdan yiroq ishlashini anglatadi. Asl matndagi "wheels and cogs" ifodasi aniq mexanik tafsilotlar sifatida berilgan bo'lsa-da, rus tilidagi variantda bu detallar "автоматы" leksemasi bilan umumlashtirilgan. Natijada, ba'zi metaforik qatlamlar soddalashtirilgan bo'lsa-da, asosiy tanqidiy fikr saqlanib qolgan.

O'zbek tilidagi tarjimada esa: "Aftidan, mazkur manzillarda bironta ham tirik jon bo'lmay, faqat yaxshi sozlangan, moylangan avtomatlar bo'lsa kerak." [5] Bu variantda "live, warm" so'z birikmasi "tirik jon" shaklida ancha ta'sirli va ma'noli tarzda o'girilgan. "Wheels and cogs" esa "yaxshi sozlangan, moylangan avtomatlar" sifatida soddalashtirilgan bo'lsa-da, mazmunini saqlagan. Asl matnda mavjud bo'lgan metafora, tanqid va kinoya o'zbekcha tarjimada ham yetarli darajada ifodalangan. Shunday qilib, matnning g'azab, tanqid va obrazlilikka asoslangan pragmatik qatlamlari tarjimada asosan to'laqonli saqlangan va maqsadli auditoriyaga to'g'ri yetkazilgan.

Tarjima amaliyoti ko'plab murakkabliklar va muayyan to'siqlarni o'z ichiga oladi hamda tarjimondan katta darajada mas'uliyat va e'tibor talab qiladi. Matnning pragmatik jihatlarini — ya'ni muloqatdagi maqsad, kontekst va adresat ehtiyojlarini — tarjima jarayonida to'g'ri aks ettirish, muallif g'oyasini aniq va mantiqan izchil shaklda yetkazish uchun zarurdir. Bu esa, o'z navbatida, asliyatdagi pragmatik qatlamni chuqur o'rganishni talab etadi.

Tarjimada pragmatik salohiyatning qay darajada to'g'ri ifodalanganligi asarning badiiy ta'sir kuchi, estetik qadriyati va kitobxonlar auditoriyasiga yetarlicha ta'sir o'tkaza olishi bilan belgilanadi. Tarjima asari o'quvchisida ham asl muallif yozganidek badiiy-estetik his-tuyg'ularni uyg'ota olishi zarur. Bunday holatda, tarjima matni o'z vazifasini to'laqonli bajaradi — ya'ni, asliyatdagi ta'sirchanlik darajasi va estetik zavq maqsadli tildagi o'quvchiga ham yetkaziladi.

Shunday ekan, tarjimada pragmatik salohiyatning saqlanishi va to'g'ri ifoda etilishi nihoyatda muhimdir. Bu esa bevosita tarjimonning matn kontekstiga mos ravishda kerakli leksik va sintaktik birliklarni puxta tanlab qo'llashiga bog'liqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Snell-Hornby M. Translation Studies: An Integrated Approach.- Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1988/1995. – 184 p.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика.- Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.- 48 б.
3. London J. Martin Eden. – London: MACMILLAN COMPANY, 1916. – 411 p.
4. Джек Лондон. Мартин Иден/ Роман. Кишинев, Гос. Издательство Молдавии, 1956. Перевод С. Заяицкого.
5. Jek London. Martin Iden/roman/ ruschadan Qodir Mirmuhammedov tarjimasi/ „Jahon adabiyoti javohirlari“ turkumi – T.: “ILM-ZIYO-ZAKOVAT”, - 2021. 480 b.

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.